

VITASTART OZUQA QO'SHIMCHASIDAN
FOYDALANISHNING BROYLER JO'JALARINING TIRIK VAZN
DINAMIKASIGA TA'SIRI

Yangiboyev Abdimalik Eshmurodovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali q.x.f.f.d.,(PhD)*

Ergashev Alisher Anvarjonovich

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti*

Xolbo'tayev Ilyosjon Rustam o'g'li

*Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va
biotexnologiyalar universitetining Toshkent filiali assistenti*

ANOTATSIYA: *Probiyotik dorilar bugungi kunda juda yaxshi o'rganilgan va keng tarqalgan, natijalarning nomuvofiqligi probiyotiklarning tarkibi va sifati bilan to'liq izohlanadi. Probiyotiklar bozorida doimiy yangilanish dori sifatini baholashni, shuningdek, oddiy va arzon o'rinbosarlarni topishni talab qiladi. Probiyotiklarning organizmning mahsuldorligi, xavfsizligi, qarshiligi, qonning gematologik va biokimyoviy ko'rsatkichlari, mushaklarning kimyoviy tarkibi va boshqa ko'rsatkichlarga ijobiy ta'siri haqida ko'plab ma'lumotlar mavjud. Shu bilan birga, Vitastart va probiotik ta'siri ostida ozuqalarning hazmlanish koeffitsientlari hozirgacha deyarli o'rganilmagan.*

Kalit so'zlar: *broyler, vitastart, oshqozon, kunlik o'sish, tirik vazn, hazmlanish, ozuqa.*

АННОТАЦИЯ: *Пробиотические препараты сегодня очень хорошо изучены и широко доступны, противоречивость результатов полностью объясняется составом и качеством пробиотиков. Постоянное обновление рынка пробиотиков требует оценки качества препарата, а также поиска простых и недорогих заменителей. Имеется много информации о*

положительном влиянии пробиотиков на продуктивность организма, безопасность, резистентность, гематологические и биохимические показатели крови, химию мышц и другие показатели. В то же время коэффициенты переваримости пищевых веществ под действием Витастарта и пробиотиков до сих пор не изучены.

Ключевые слова: бройлер, витастарт, желудок, суточный прирост, живая масса, переваримость, корм.

ANNOTATION: *Probiotic drugs are very well studied and widely available today, the inconsistency of results is fully explained by the composition and quality of probiotics. Constant updating in the market of probiotics requires evaluating the quality of the drug, as well as finding simple and inexpensive substitutes. There is a lot of information about the positive effects of probiotics on the body's productivity, safety, resistance, hematological and biochemical indicators of blood, muscle chemistry and other indicators. At the same time, the digestibility coefficients of nutrients under the influence of Vitastart and probiotics have not been studied so far.*

Key words: broiler, vitastart, stomach, daily growth, live weight, digestibility, feed.

Tadqiqot natijalari

Broyler jo'jalarining o'rtacha tirik vazni 1-jadvalda keltirilgan.

Vitastartni oziqlantirish bo'yicha tajriba natijalari shuni ko'rsatdiki, uni hayotning birinchi haftasida jo'jalarning tirik massasiga ta'siri deyarli hech qanday tarzda namoyon bo'lmadi. O'rtacha tirik vazn 140,3 g dan 160,4 g gacha bo'lgan.

Parvarishlashning ikkinchi haftasida 2-guruh jo'jalari ("Vitastart" ni boqish muddati 10 kun) 428,64 g maksimal tirik vaznga ega bo'lishdi, bu ishonchli ($p < 0,05$ da) boshqa guruhlarning ko'rsatkichlaridan ustundir.

Broyler jo'jalarining o'rtacha tirik vazni, g

1-jadval

Yoshi,kun	Guruhlar		
	Nazorat	1-tajriba	2-tajriba
1	45,7	45,7	45,7
7	140,3±2,2	148,21±2,10	160,41±1,95
14	571,5±6,1	601,11±6,03	660,49±5,71
21	1000,41±12,04	1036,64±10,67	1149,61±14,87
28	1571,6±22,8	1641,02±22,48	1803,41±17,82
35	2262,5±25,46	2350,82±25,94	2805,61±31,62
42	3036,7±37,65	3168,42±38,20	3671,51±40,53

(p<0,001)

Jadval malumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, jo‘jalarning tirik vazni nazorat tengdoshlaridan yuqori edi: 2-tajriba guruhimizdagi jo‘jalar nazorat guruhimizga nisbatan 14 kun ichida-15,57% ga (p<0,001), 21 kun ichida-14,9% ga (p<0,001), 28 kun ichida-14,74 % ga (p<0,001), 35 kun ichida-24,00 % ga (p<0,001), 42-kuni 20,90 % ga (p<0,001). Vitastartni asosiy ratsioniga qo‘shimcha ravishda olgan ikkinchi tajriba guruhi birinchi tajriba guruhiga nisbatan tirik vazn bo‘yicha 14 kun ichida 9,87% (p<0,001), 21 kun ichida 10.89 % (p<0,001), 28 kun ichida 9,89 % (p<0,001) , 35 kunda 19,3% (p<0,001), 41 kunda 15,86% (p<0,001) ga yuqori bo‘ldi.

Besh haftalik bo‘lganida, 2-guruh jo‘jalari nazoratdan sezilarli darajada tirik vaznga ega bo‘lib, tirik vazni tajribada 2805,61 g va nazorat ostida 2262,5 g ni tashkil etdi.

O‘shishning butun davrida o‘rtacha tirik vaznda ishonchli farqlar bilan tafovutni ko‘rish mumkin. 1 va 2 guruhlarining ko‘rsatkichlari o‘shish tendentsiyasiga ega edi: 1 - guruhdagi tirik vazn 3168,42 g, 2 - guruhda-3671,51 g, nazorat guruhida-3036,7 gm ni tashkil qildi.

Broyler jo‘jalarining tirik vaznining o‘rtacha kunlik o‘shishi to‘g‘risidagi ma‘lumotlar 8-jadvalda va 2-rasmda keltirilgan.

"Vitastart" dan 10 kun davomida foydalanish (2-guruh) butun o‘shish

davrida o'rtacha kunlik o'sishni oshirishga imkon berdi. Vitastartni 7 kun davomida olgan 1-guruh jo'jalarining o'sishi biroz pastroq edi.

2 jadval

Vitastar ozuqa qo'shimchasi ta'sirida jo'jalarning tirik vaznining o'rtacha kunlik o'sishi, gm

Yoshi /kun	Guruhlar		
	Nazorat	1-Tajriba	2-Tajriba
7	25,7±0,61	27,0±0,28	29,11±0,29
14	41,6±0,91	54,7±0,93	61,44±0,89
21	81,65±2,13	86,34±1,58	93,41±0,93
28	98,72±3,46	101,48±2,43*	114,61±2,03
35	110,63±3,47	116,82±4,07	123,73±2,58
41	125,81±4,99	136,5±2,10	140,5±1,75
O'sish davrida o'rtacha	80,63	87,19	93.8

6 haftalik o'sishda hayotning dastlabki 10 kunida (2 — guruh) "Vitastart" bilan boqilgan jo'jalarda maksimal o'sish kuzatildi-93,8 g.

Eng past o'sish nazorat guruhidagi jo'jalarda bo'lgan-80,63 g.

Broyler jo'jalarining 1 kg o'sishi uchun ozuqa, xom protein va metabolik energiya xarajatlari jadvalda keltirilgan.

3 jadval

Broyler jo'jalarining 1 kg o'sishi uchun ozuqa, xom protein va metabolik energiya xarajatlari

Yoshi, haftalik	Guruh		
	Nazorat	1 Tajriba	2 Tajriba
Oziq-ovqat, kg			
1	0,86	0,93	0,85
2	1,25	1,21	1,20
3	1,49	1,47	1,47
4	1,67	1,65	1,65
5	1,85	1,80	1,75
6	2,25	2,10	2,12

Xom protein, g			
1	196	207	210
2	285	277	297
3	322	337	337
4	345	378	377
5	352	387	400
6	419	417	431
Energiya almashinuvi, MDj			
1	11,04	11,60	11,93
2	16,10	15,73	16,52
3	18,18	19,14	18,74
4	19,48	21,49	21,36
5	22,40	24,17	25,66
6	26,69	26,74	27,68

Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki 1 tajriba guruhimizda ozuqa iste'moli boqish davri davomida o'rtacha 1,52 kg ozuqa sarfladi. 2 tajriba guruhimizda ozuqa iste'moli boqish davri davomida o'rtacha 1,50 kg ozuqa sarfladi. Nazorat guruhimizda ozuqa iste'moli boqish davri davomida o'rtacha 1,56 kg ozuqa sarfladi. Xom protein iste'moli bo'yicha o'rtacha 1 tajriba guruhimizda 333,8 gm, 2 tajriba guruhimizda 342 gm, Nazorat guruhimizda 319,8 gm xom protein sarflandi. Metabolik energiya xarajatlari bo'yicha esa 1 tajriba guruhimizda o'rtacha 19,8 MDj ni, 2 tajriba guruhimizda 20,3 MDj ni, tashkil etdi. Nazorat guruhimizda 18,9 MDj ni tashkil qildi.

Ozuqa iste'moli bo'yicha eng yuqori xarajatlar boqish davri davomida uzluksiz ravishda asosiy retseptni qabul qilgan Nazorat guruhimizda qayd etildi, buning sababi qilib probiotik va Vitastart ozuqa qo'shimchasini qabul qilmaganini ko'rsatish mumkin, Asosiy retseptga qo'shimcha ravishda faqatgina probiotikni qabul qilgan 1-tajriba guruhimizda 1,52 kg ni tashkil qildi bu nazoratga nisbatan 0,04 kg ga kam iste'mol qilganligini ko'rsatadi bunga sabab probiotiklarning ozuqalarni hazmlanishi va organizmga o'zlashtirilishidagi faol ishtirokini aytish mumkin. 2-tajriba guruhimizda bu ko'rsatgich probiotiklar va

vitastart qo‘shimchalari hisobiga 1,50 kg ni tashkil qildi bu esa nazorat va 1-tajriba guruhidan 0,06 va 0,02 kg ga kam bo‘ldi.

Xulosa

1. Vitastart dan 10 kun davomida foydalanilganda oqsilning hazm bo‘lishi 1-balans tajribasida 84,87% va 2-tajribada 81,82%, 7 kun davomida oziqlantirishda mos ravishda 83,9% va 81,63 % va 4 kun davomida 83,01% va 81,17% ni tashkil etdi. Barcha eksperimental guruhlarda xom yog' va xom tolaning hazm bo'lishi nazoratdan yuqori bo'ldi.

2. 10 kun davomida tovuqlar ratsioniga Vitastart ozuqa qo‘shimchasini kiritish boshqa guruhlariga nisbatan so‘yish mahsuldorligini sezilarli darajada oshirib, 70,6% ga yetkazdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, N.Sattorov. Utilization of nitrogen and mineral substances by the organism in the care of ross-308 broiler chicks with the help. International Conference on Developments in Education Hosted from Toronto, Canada <https://econferencezone.org> 21 st August – 2024 9-16 bet.
2. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, N.Sattorov. Tetrabiotik yordamida broyler jo‘jalarini parvarishlashda ozuqa moddalari va energiyaning organizm tomonidan o‘zlashtirilishi. International Conference on Developments in Education Hosted from Saint Petersburg, Russia <https://econferencezone.org> July - 23rd 2024 10-17 bet.
3. A.Yangiboyev, I.Xolbo‘tayev, A.Narimov. Tuxum yo‘nalishidagi jo‘jalarni Quruq sut ozuqa qo‘shimchasi yordamida parvarishlashda Aniqlash tajribasini o‘tkazish natijalari Open Academia: Journal of Scholarly Research Volume 1, Issue 8, August, 2024 ISSN (E): 2810-6377 Website: <https://academiaone.org/index.php/4> 1-5 bet
4. I.R.Xolbo'tayev - Broiler jo'jalarining tirik vazn dinamikasi, o'sish intensivligi va yashovchanligiga Tetrabiotik probiotigining ta'siri. Chorvachilik va naslchilik ishi ISSN-2181-9459 Ilmiy-amaliy jurnal №4 2024 yil 18-21 bet

5. I.R.Xolbo'tayev Effect of tetrabiotic probiotic on quantitative and qualitative indicators of broiler chicken meat. Neo science peer reviewed journal volume 24, august - 2024 ISSN (e): 2949-7701 www.neojournals.com 1-6 papers